№ 1/2025

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2025 mart

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda № 045013 raqam bilan ro‘yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo‘yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri, “Do‘stlik” ko‘chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas’ul muharrir:
B.A. Sirojidinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
TAHRIR KENGASHI
S.Z. Zaynobiddinov- O‘zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Yu. Isayev- kimyo fanlari doktori (DSc), professor
Sh.X. Yo‘lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
R. Aliyev- texnika fanlari doktori, professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A.Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
D.M. Isroilova - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K.Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
F.F. Usmanov- filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Q.Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O‘.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sh.M.Asqarov – tarix fanlari nomzodi, dotsent
B.M. Do‘monov- pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
T.Parpiyev- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S.Karimov – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J.Abduraxmonova - biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B.Qoraboev- filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
N.T. Mo‘ydinov- kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.Sh.Alimova - siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M.Rejapova- biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
L.S.Yunusov - biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Abdullayeva A.A. Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» g‘oyasining o‘rni 3
Madumarov B.Y. Ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda ekotsentrizm falsafasi 8
Ikromov H.O. Chaqiruvga qadar boshlang’ich harbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish: qonunchilik va strategiyalar 11
Karimova M.A. “Avlodlar almashinuvi” tushunchasining ijtimoiy falsafiy-tahlili 14
Akmaljonov A.A. Ashtarxoniylar sulolasi davrida buxoro xonligining ijtimoiy – iqtisodiy hayoti 18

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Abdullajonova Yu.A., Xoshimjonova O.A., Mamajonova O‘.Z., Mirzayeva Z.O., Qirg‘izov F.B., Muydinov N.T. Ta’lim jarayoni subyektlarning ta’lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi 22
Janaberegnova A.J. Mustaqil ta’limni takomillashtirishda elektron ta’lim resurslarini yaratish hamda ulardan foydalanish metodologiyasi 25
Мир-Юсупова М.А. Методические основы преподавания технологии в высших учебных заведениях 32
Ubaydullayev S.Q. O‘zbekiston ta’lim tizimida texnoligik ta’limning uzviyligini ta’minlashning zaruriyati 38
Toxirov F.B. Kreativ yondashuvni rivojlantirishda trening va mashg‘ulotlarning roli 42
Mamatova G.J., Botiraliyeva G. Oliy o‘quv yurtlarida integratsiyalashgan ta‘limdan foydalanish afzalliklari 45
Tursunov F.E. Texnologiy darslarini tashkil etishda maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarining o‘zaro integratsiyasi 49
Kambarova M.M. Zuxriddinova N.N. Texnologik ta’limda aralash o‘qitishni amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar 53

UO‘K. 37.026

UCHINCHI RENESSANS YOSHLARINI TARBIYALASH VA YOSHLAR MILLIY O‘ZLIGIDAN BEGONALASHUVIGA QARSHI “MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI» G‘OYASINING O‘RNI

https://zenodo.org/records/14956531

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Maqolada Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasining o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan. Bugun dunyoga Yangi O‘zbekiston nomi bilan balqiyotgan Uchinchi Renessans g‘oyasining jozibasi shundaki, u o‘z atrofiga davlatni ham, jamiyatni ham, butun xalqni ham birlashtira oladi. Bu g‘oyaning milliy g‘oya o‘laroq keng quloch yozishi esa, nazarimizda, barchamizning uning mazmunini chuqurroq anglashimizga, teranroq mushohada yuritishimizga bog‘liq.*

Kalit so‘zlar: *Uchinchi Renessans, yoshlar, tarbiya, milliy o‘zlikni anglash, milliy tiklanish, milliy yuksalish, fan, ta’lim, oila, mahalla.*

Аннотация. *В статье научно обоснована роль идеи «От национального возрождения к национальному подъему» в воспитании молодежи Третьего Возрождения и против отчуждения молодежи от своей национальной идентичности. По нашему мнению, широкое признание этой идеи в качестве национальной идеи зависит от нашего более глубокого понимания и наблюдения за ее содержанием.*

Ключевые слова. *Третье Возрождение, молодежь, образование, осознание национального самосознания, национальное возрождение, национальный подъем, наука, воспитание, семья, соседство.*

Abstract. *The article scientifically substantiates the role of the idea "From the national revival to the national rise" in the education of the youth of the Third Renaissance and against the alienation of youth from their national identity. In our opinion, the widespread acceptance of this idea as a national idea depends on our deeper understanding and observation of its content.*

Key words: *Third Renaissance, youth, education, awareness of national identity, national revival, national uplift, science, education, family, neighborhood.*

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta’minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorlash darajasi, salohiyati va ahamiyati jixatidan ham muhim hisoblanadi. Talabalarning tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang‘ich ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib bormoqda. Lekin bularning ichida e’tiborsizdek tuyiladigan, biroq oqibati tanazzulga, jaholatga olib boradigan bir omil, ya’ni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati millatning ma’naviy tannazulining asosi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bog‘chalar, maktablar, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, «Temurbeklar maktabi», «Prezident maktablari», «Ijod maktablari» deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi ta’lim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyaalashga hizmat qilmoqda” [1]

Davlatimiz raxbari tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar oʻquvchilarning ta'lim va tarbisini rivojlantirishga qaratilganligi xech birimizga sir emas. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-6108-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6-iyuldagi "Umumiy oʻrta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma- bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 422-son qarori [2]. umumta'lim muassasalari oʻquvchilarining yoshiga xos psixo-fiziologik jixatlarini hisobga olgan holda ularda umuminsoniy qadriyatlar va barkamol ma'naviyatni, sogʻlom muhitni chuqur singdirish, oʻquvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik ruhida tarbiyalash, umumta'lim muassasalarida tasarufidagi ma'naviy va tarbiyaviy ishlarni yangicha koʻrinishda tashkil etishga qaratilganligini koʻrishimiz mumkin.

Eng avvalo "Tarbiya" faniga toʻxtalishdan oldin tarbiya tushunchasining oʻzini bayon qilish lozim. Milly tarbiya - ijtimoiy ong shakllaridan biri boʻlib, yoshlarda halollik, poklik, burch, vijdon, olijanoblik, fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Tarbiya insonlarning oʻziga, oilasiga, yaqinlariga, doʻstu yorlariga boʻlgan munosabatlarini tartibga solib turadigan xulq-atvor me'yorlarining (normalarining) majmuasidir. Tarbiya keng qamrovli tushuncha sifatida inson faoliyatining hamma jabhalariga ta'sir koʻrsatadi. Tarbiya hamma soha - ishlab chiqarishda, turmushda, oilada, boʻsh vaqtda ham kishilar xulq-atvorini, insoniy munosabatlarini tartibga soladi. Tarbiya ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan farq qilib, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy vazifalarni bajaradi.

Inson shaxsi shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyatga ega boʻladi. Umuman aytganda, tarbiya ta'lim berish jarayonining barcha ma'rifiy majmuasini ham vazifasini ham oʻz ichiga oladi. Har qanday ta'lim, tarbiya bilan uygʻunlashgandagina yetuk ma'naviyatga zamin boʻladi. Tarbiya, xususan milliy tarbiya xaqida soʻz borganda, bu tushunchaning mohiyati ustida alohida toʻxtab oʻtish lozim. Tarbiya soʻzi asli arabcha boʻlib, «parvarish qilish, ta'lim berish, oʻrgatish» degan ma'noni anglatadi. Tarbiyachi esa yuqoridagi maqsadlarni amalga oshiruvchi shaxsdir. Mukammal tarbiya berish ma'naviy kamolotning barcha jabhalarini rivojlantirish uchun sub'yektiv omil boʻlib, unga asos ham yaratadi Shuning uchun hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarni axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi hamda malakasini davr talablari va ehtiyojlari bilan uygʻunlashtirib shakllantirishga harakat qilganlar. Shunga koʻra, —har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, oʻz maqsad va mohiyatiga koʻra gʻoyaviy tarbiyadi.

Sogʻlom milliy tarbiya – yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini ham anglatadi. Shu oʻrinda tarbiya hamda ta'lim beruvchining shaxsiy sifati hamda oʻz ishiga fidoyiligi bu masalada gʻoyat muhim ekanligini unitmaslik kerak. Bu xususda Gʻazzoliy shunday yozadi. "Shayxning (tarbiyachining) muridini tarbiyalash kaliti - yerdan ungan ne'matning yaxshi hosil bermogʻi uchun dehqon uning atrofini begona oʻtlar, tikanlardan tozalagani kabi bir hol"[3].

Oʻsib kelayotgan yoshlarning har tomonlama yetuk inson boʻlib yetishishlari uchun mamlakatimiz ta'lim muassasalarida yangi oʻkuv jixozlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanishi xukumatimizning bu sohaga alohida e'tibor qaratayotganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2021-2022 oʻquv yilidan boshlab prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi kelajak avlod uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, professor-oʻqituvchilar zimmasiga esa katta ma'suliyat yuklatildiki, pedagogik sohada prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim va tarbiya berish uchun zamon talablariga javob bera

oladigan kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berishlari talab etiladi. Shu o'rinda talabalarning o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish metodikasini singdirish bilan bir qatorda Sharq mutafakkirlari ijodini ilmiy, nazariy-amaliy jihatlari, asarlaridagi yoshlar tarbiyasiga oid qadriyatlarni kelajak avlod qalbi va ongiga singdirishlari lozim.

Yuqoridagi masalani nechog'lik xavotirli va dolzarbligi to'g'risidagi mulohazalarni asoslashda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish va zarur maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini aniqlash va manzilli sog'lomlashtirish metodikasi" hamda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida joylarda o'tkazilgan so'rovlar natijalaridan misollar keltirish mumkin. Jumladan, mazkur tashxis ishlarida aholi orasida Ota-onalarning farzandiga yaxshi tarbiya berishi uchun nima xalaqit berayapti deb o'ylaysiz? deb berilgan savolga Navoiy (60%), Jizzax (57,4%), Sirdaryo (57%), Samarqand (53%), Buxoro (44%) viloyati hamda Toshkent shahrida (50%) "ota-onalar tarbiya metodlarini bilmaydi va tarbiyadagi oilaning mas'uliyatini anglamasligi" deb javob berishgan, bu ko'rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tibor borasida masalani jiddiy o'ylab ko'rishlarini taqazo qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so'z bordi. Mazkur yig'ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalib, "Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi", [4]- deya alohida ta'kidladi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta'limdan bo'sh vaqtida amalga oshiriladigan qo'shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo'lib kelganligi sir emas. Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Shunday bir vaziyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 3- maydagi PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga hos tarixiy voqelik bo'ldi. Mazkur konsepsiya 8 ta bob va ma'naviy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tadbirlar rejasidan iborat bo'lib, uning amalga oshirilishi 4 bosqichdan iborat bo'ladi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning

rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi.

“Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur”, degan edi milliy pedagogikamizning buyuk darg‘asi Abdulla Avloniy. Konsepsiya ana shu hikmatga hamohang bo‘lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Voyaga yetgan o‘g‘il-qizlarimiz mustaqil hayotga ana shu fazilatlari bilan kirib boradilar. Bu fazilatlari ularning o‘zlarini ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qiladi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi o‘zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta’kidlandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, Xitoyning yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o‘rganilgan.

Konsepsiyada O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko‘tariladi.

Konsepsiya oldiga qo‘yilgan vazifalar:

ma’naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;

oila, ta’lim muassasalari va mahalla, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish;

ma’naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishdan iborat.

O‘zining tarixiy missiyasiga xos bo‘lgan jadidchilik harakati davri, bizningcha, bir qancha uyg‘onish davri arboblarini vujudga keltirdi. «Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan „Yangi O‘zbekiston“ g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz”, — dedi davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev [5].

Uyg‘onish davri odami kim va uning xususiyatlari qanday, degan savolni bersak, quyidagicha javob bergan bo‘lardik. “Uyg‘onish davri shaxsi” deganda inson va xalqning insonparvarlik xarakterini aks ettirgan va uni keng targ‘ib qilgan, insonparvarlik g‘oyalarini o‘z ijodi va kurashining tayanchiga aylantirgan, tarix va madaniyat, san’at, ta’lim sohalarida ulkan burilish yasagan shaxs tushuniladi. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta

maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiyijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz [6].

Milliy ilm-fanning tug'ilishi va shakllanishi o'sha xalq uchun doimo o'ziga xos hodisadir. Bu odamlarning ulg'ayib, tafakkuri yangi sifat bosqichiga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatadigan misoldir. Bilimli, ilmli xalq o'z bilimi evaziga dunyodagi narsa va hodisalarning sir va sirlarini anglay boshlaydi, hayoti engillashadi, yangi hunar va kasblarni egallaydi. U buni hayotida yaratishni boshlaydi. Ayni shu ma'noda "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» g'oyasini Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o'zligidan begonalashuviga qarshi kurashdagi ahamiyati beqiyos hisoblanadi. O'zbekistonda uchinchi uyg'onish davri boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda", - degan so'zi yangradi [7].

Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Evropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr avval (IX-XII acrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida "Musulmon Renessansi" (A.Mets) yoki "SHarq Uyg'onishi" (N.I.Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. SHarq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni etishtirdi. SHarqdagi Birinchi Uyg'onish davrida yurtimizdan Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Mahmud Qoshg'ariy va Yusuf Xos Hojiblar etishib chiqqan bo'lsalar, Ikkinchi Uyg'onish davrida esa, xususan, temuriylar xonadoni hukm surgan bosqichda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi daho ijodkorlar o'lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo'nalishga asos soldi .

Mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan globallashuv jarayoni sharoitida Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o'zligidan begonalashuviga qarshi kurashish jarayoni Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan hamohang kechayotganini hisobga olgan ma'qul. Bu tarixiy ong asosida rivojlang an maishiy madaniyatdagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq edi. Bir qarashda tarixiy ong madaniyatning bir qismidek tuyulishi mumkin. Zero, madaniy jarayon insonning uzluksiz tarixiy jarayondagi rolini yaqqol his etishiga imkon beradi. Biroq, tarixiy ong va madaniyat bir-biriga yaqin bo'lsa-da, tarixiy ong madaniy meros bilan chambarchas bog'liq bo'lsa ham, bular turli xil ijtimoiy-falsafiy tushunchalar ekanligini hisobga olish kerak. Har holda, madaniyat jamiyatning o'ziga xos tarixiy ongidir. Aksincha, madaniyatdagi hodisalar jamiyat hayotida tarixiy voqeaga aylanadi. Shunga asoslanib, o'sha jamiyatga xos bo'lgan o'z-o'zini anglash va ong shakllana boshlaydi. Demak, bu yerda millatning o'z-o'zini anglashi tarixiy ongning muhim tarkibiy qismidir. Binobarin, madaniyat xalqning tarixiy taqdiriga beqiyos ta'sir ko'rsatadi. Chunki xalq xotirasi, mentaliteti madaniyatda saqlanib qoladi va bu jamiyatning tarixiy ongini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, tarixiy ongsiz meros madaniyatni anglash qiyinligi sir emas. Shunday qilib, tarixiy ong va madaniyatning integratsiyalashuvi xalqning milliy ongida namoyon bo'ladi. Milliy ong tarixiy ongning belgilovchi qismiga aylanadi. Shuning uchun madaniyat tarixiy ongning bir shakli ekanligini inkor etadi. Dunyoda ham milliy, ham umuminsoniy boshlang'ichlar azaldan

mavjud boʻlgan. Tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab butun dunyo boʻylab tarqalib ketgan va bir-biridan bexabar inson jamoalari, odatda, deyarli bir xil qonunlar ostida yashab, faoliyat yuritgan. Insonlar oʻz ehtiyojlari va tabiatiga koʻra ham umuminsoniy, ham shaxsiy mavjudot boʻlganidek, xalqlar ham shundaydir. Milliylik va insoniylik sintezi taraqqiyotga toʻsiq emas, balki obektiv qonuniyatdir. Darhaqiqat, bugungi kunda dunyoda roʻy berayotgan koʻplab voqea vavaziyatlarni etnik, fuqarolik va milliy oʻziga xoslik, milliy ong, millatlarning tiklanishi, ommaviy etnik-siyosiy safarbarlik, etnik-siyosiy ziddiyatlar, ziddiyatlar kabi omillarni hisobga olmasdan turib tushunib boʻlmaydi. Umuman olganda, olimlarning fikricha, millatlararo munosabatlarga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omillarga ijtimoiyiqtisodiy beqarorlik, siyosiy, geosiyosiy, ishsizlik, inson huquqlarini himoya qilish, etnik guruhlarning haqiqiy holati, alohida xalqlar ichidagi tinchlik, madaniyat va urfodatlar darajasi kiradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib xulosa sifatida aytadigan boʻlsak, milliy oʻzlikni anglash masalasi ma'naviy yangilanish jarayonining oʻzagi hisoblanadi. Chunki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy oʻsish va madaniyatning holati milliy va fuqarolik oʻziga xosligiga erishishga bogʻliq boʻladi. Ya'ni, globallashuv davrida, shiddat bilan oʻzgarib borayotgan dunyoda har bir xalq oʻziga xosligini yoʻqotmasdan, balki oʻzi duch kelayotgan xavf-xatarlarni toʻgʻri engib oʻtish, omon qolish uchun uni yanada mustahkamlashi kerak. Faqat "xilma-xillikdagi birlik" siyosiy formulasi asosida biz tinchlik, totuvlik, totuvlik va barqarorlikni saqlaymiz, kelajakka katta ishonch bilan qaraymiz, strategik rejalar tuzamiz va ularni amalga oshiramiz, raqobatbardosh Oʻzbekiston davlatini shakllantiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019- yil 23-avgust kuni xalq ta'limitizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzinioshirishga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishi. https://www.xabar.uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga koʻtarish toʻgʻrisida"gi PQ-3160-son. //https://lex.uz/docs/3360950.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ-4307-son Qarori https://lex.uz/docs/4320700.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomilashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-5040 qarori. https://lex.uz/docs/5344692
5. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 1059-sonli qarori
6. Quronov M. "Har bir ota-ona pedagog boʻlish kerak" maqola. http://www.adolatnashr.uz/uploads/17.0ila.2016.pdf.
7. Jabborov X. "Milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik omillari". Psixologiya ilmiy jurnali, 2021-yil 3-son. B.110-118.

UOʻK: 1159,922.6

IJTIMOIY-FALSAFIY ADABIYOTLARDA EKOTSENTRIZM FALSAFASI

https://zenodo.org/records/14956533

Madumarov Begzodbek Yoqubjonovich
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada antropotsentrizm va ekotsentrizm oʻrtasidagi ziddiyat resurslardan foydalanish, rivojlantirish va saqlash masalalarida oʻzaro qarma-qarshilikni oqibatlari tahlil qilindi. Shuningdek, geoetika odamlarning sayyora bilan qanday munosabatda boʻlishi haqidagi katta axloqiy masalalarni salbiy oqibatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari havo va suvning ifloslanishi, choʻllashish, global issiq va sovuq havo oqimlari, inson harakatlarining atrof-muhitga yetkazilayotgan zararlar ta'siri haqida ma'lumotlar bayon qilingan.*